

TARBIYA FANI ASOSIDA O'QUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Jumanova Xafiza Xoliqulovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: hafizajumanova52@gmail.com

+998934362756

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22021810>

Annotatsiya: Tezisdagi «Tarbiya» fanining mazmunida huquqiy tarbiyani amalga oshirishning imkoniyatlari va ahamiyati batafsil tahlil qilindi. Tarbiya fanining o'quvchilarda qonunga hurmat va huquqiy ongni shakllantirish, ularni demokratik prinsiplarga amal qilishga o'rgatishda muhim vazifalari yoritildi. «Tarbiya» fani doirasida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishga xos funksional yo'nalish pedagogik maqsad va unga erishish vositalari haqidagi ishlab chiqilgan g'oyalarga mos huquqiy natijaga yo'naltirilganlikni nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya, odob-axloq, inson huquqlari, huquqiy ong, huquqiy kompetentlik, bilim, ko'nikma, qobiliyat

I. KIRISH

Jahonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvini nazariy-huquqiy jihatdan o'rganish muhim dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur sohaning strategik omilini belgilovchi maqsadlar, qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvor shakllari o'zgargan sharoitda jamiyat, davlatning yanada rivojlanishi va barqarorlashuvi, huquq va erkinliklarni amalga oshirish ko'p jihatdan insonning o'ziga, uning sodir bo'layotgan o'zgarishlarga moslashish qobiliyatiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi mazmunini takomillashtirish, huquqiy ta'lim va tarbiyani maqsadli tashkil etish orqali o'z huquq va majburiyatlarini to'liq anglagan mutaxassis kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Ayniqsa, ta'lim sohasini uzluksiz modifikatsiyalab borish, o'qitishning zamonaviy integratsiyasi asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni barqaror rivojlantirish muhim ustivorlik kasb etadi.

Respublikamizda huquqiy savodxonlikni oshirish, ta'lim tizimida inson huquqlari va gender masalalari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimini samarali tashkil etish, maktab ta'limiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yangi Renessans pedagogikasi sharoitida o'quvchilarning huquqiy faolligi oshirish, ularda faol o'qish va o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «davlat ta'lim standartlarida belgilangan kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish, baholash, metodlar, darslik va boshqa o'quv materiallariga asosan o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axbortni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va malakalarini, o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish»¹]; ustivorlik kasb etadi. Bu esa, ta'lim sohasi vakillarining oldiga ta'lim va tarbiyani bir-biridan alohida ajratmasdan, bu ikki jarayonni o'zaro uyg'un, uzuluksiz asosda tashkil etish orqali, odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'anviyatli, shu bilan birga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari miliy bazasi. <https://lex.uz>

bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, dunyo standartlariga javob bera oladigan vatanparvar, huquqiy bilimga ega, ijtimoiy jihatdan yetuk, erkin shaxsni tarbiyalashning qulay pedagogik shart-sharoitlarni "Tarbiya" fani imkoniyatlaridan foydalanib, uzviylik va uzluksizni ta'minlash, pragmatizatsiya, o'quv fanlarini diversifikatsiyalash va mazmunini integratsiyalash kabi qator pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqazo etadi.

II. ASOSIY QISM

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bosqichlarida amalga oshirilayotgan huquqiy ta'lim samaradorligi aholi, shu jumladan, yoshlar tomonidan nazariy-huquqiy bilimning puxta o'zlashtirilishi, ularda faol amaliy-huquqiy faoliyatni amalga oshirish ko'nikma, malakalarining shakllanganlik darajasi va uning sifat ko'rsatkichi bilan o'lchanadi. O'quvchilar tomonidan huquqiy bilimlar chuqur o'zlashtirilishining yuqori bosqichida huquqiy madaniyatning shakllanish hodisasi ro'y beradi. Binobarin, mazkur hodisa mohiyatini tahlil etish jamiyatda mavjud bo'lgan real holatni o'rganish, bu borada aniq tasavvurga ega bo'lishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyat va uning shaxs faoliyatida qaror topish jarayonining mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika sohasi olimlarining tahliliy xulosalariga ko'ra, huquqiy bilimlar o'quvchilar ongida Konstitutsiya va amaldagi qonunlar to'g'risidagi asosiy tushunchalarni, shaxsning huquq va burchlari haqidagi bilimlarni, shuningdek, jamiyat hayotida huquqning ijtimoiy-tartibga soluvchi roli haqidagi tasavvurlar tizimini qamrab oladi.

Pedagogik adabiyotlarda huquqiy tarbiya shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim yo'nalishi sifatida qaraladi. Bu borada N. Safarov "Huquqiy tarbiya — shaxsda huquqiy ongni, qonunlarga hurmat va ularga ixtiyoriy rioya qilish ehtiyojini shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayondir"² [] deb hisoblaydi.

Pedagog-olim B.X. Xodjayev "O'quvchilarda huquqiy bilimlarni samarali shakllantirish mazkur bilimlar yosh xususiyatlariga mos ravishda, hayotiy misollar va ijtimoiy vaziyatlar bilan bog'langan holda, shuningdek, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan taqdidragina ular tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishi va barqaror xarakter kasb etishi"ni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi³ [].

Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya – bir-biri bilan uzviy bog'liq, integratsiyalangan jarayonlar bo'lib, ular insonda huquqiy bilimlarni mukammal oshirish va qonunlarga to'liq rioya qilish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. B. Ziyomammedov va Sh. Abdullaeva fikriga ko'ra, "Huquqiy ta'lim-tarbiya insonda huquqiy bilimlarni oshirish, qonunlarni yaxshi o'zlashtirib, ularga to'liq rioya etish ko'nikmasini hosil qilishdir".

Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, huquqiy ta'lim va tarbiyaning integratsiyasi yoshlarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda samaradorlikni oshiradi. Bu esa, Tarbiya fani huquqiy bilimlarni axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'lab berish orqali o'quvchilarda huquqiy ongning mustahkamlashini ta'minlaydi.

Olimlar fikriga ko'ra, huquqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun huquqiy ta'lim-tarbiya jarayoni tizimli, uzviy va jamiyatning ijtimoiy muhiti bilan uyg'un bo'lib olib borilishi kerak. Bu esa tarbiya fanining mazmun va uslublarida aks etishi maqsadga muvofiq sanaladi.

² Каримова О.А. Ёшлар ҳуқуқий тарбиясининг асосий йўналишлари. –Т.: ТДПУ.1999.-21 бет.

³ Ходжаев Б.Х., Умумий педагогика (педагогика назарияси). Т.: Sano-Standart 2017 йил 416 бет

Tarbiya fani asosida o'quvchilarida huquqiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi quyidagi psixologik va pedagogik shartlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

tarbiya fani asosida o'quvchilarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish;

tarbiya fani tayanch kompetensiya elementlari asosida huquqiy bilim, ko'nikma va malaka va shaxsiy sifatlarni egallanishida yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantirish;

tarbiya fani asosida davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

tarbiya fani asosida huquqiy ong va huquqiy madaniyatli komil inson shaxsini tarkib toptiruvchi bilimlar banki va bazasini boyitishning didaktik metod va vositalardan foydalanish;

tarbiya fani darslarida o'quvchilar o'rtasida huquqiy ongni rivojlantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish;

o'quvchilarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir o'quvchida qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashish;

tarbiya fani asosida o'quvchilarning huquqiy bilimni oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi yaratish;

o'quvchilarda huquqiy ong haqida ilmiy, nazariy bilimlarni rivojlantirish imkonini beruvchi ishonitirish, e'tiqod metodlarni qo'llash;

o'quvchilarda huquqiy ongni, jamiyatning an'anaviy qadriyatlarga asoslangan integratsiyasini ta'minlash va yangi huquqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish uchun uning ikki tomonlama ijtimoiy-madaniy salohiyatini zamonaviy usullar va didaktik vositalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishga erishish;

o'quvchilarda huquqiy ongni rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonini innovatsion texnologik, proeksion modellashtrish jarayon bilan almashtirish;

ta'lim va tarbiya jarayonida "shaxs-qonun-kelajak" modelini tashkil etishda xorijiy davlatlar tajribasidan keng foydalanish;

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini "shaxs - oila - mahalla - ta'lim muassasasi - tashkilot - jamiyat" tamoyili bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etish asosida rivojlantirish.

Huquq va axloq o'zaro bog'liq va mukammal bo'lishi, sababi huquqiy kompetentlik faqat qonunlarni tushunish emas, balki jamiyatdagi odob-axloq normalari bilan uyg'unlashgan huquqiy ongni shakllantirishni talab qiladi. Tarbiya fani shu jihatni qamrab olgan holda, o'quvchilarda huquqiy me'yorlarga mos keladigan axloqiy qarashlar va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi.

Tarbiya fanining integrativ xususiyat ega, chunki, tarbiya fani ta'lim jarayonida fanlarning turli sohalari, jumladan huquqiy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy bilimlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning huquqiy kompetentligini kompleks ravishda rivojlantirish uchun muhim.

Huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda tarbiyaning amaliy samaradorligiga, tarbiya fanining mashg'ulotlari va tadbirlari orqali o'quvchilarda huquqiy tushunchalar va qonunlarga

hurmat tuyg'usini uyg'otish mumkin. Bu ularning qonunga bo'ysunishini va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashini ta'minlaydi.

Zamonaviy muammolarga qarshi huquqiy madaniyatni oshirish, sababi, jamiyatimizda turli huquqiy muammolar, huquqbuzarliklar va qonunsizlik holatlari uchrab turadi. Tarbiya fanining maqsadi – o'quvchilarda huquqiy madaniyatni oshirish, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik ruhini shakllantirish va huquqiy axloqni mustahkamlashga xizmat qiladi.

III. XULOSA

Huquqiy tarbiyaning pedagogik, ijtimoiy va huquqiy mohiyatiga ko'ra, u jamiyatning demokratik tamoyilariga amal qilish va huquqiy madaniyatni tarbiyalashga olib keladi. O'quvchilarning huquqiy faolligini oshirish, qonunlarga rioya qilish va huquqiy masalalarda har tomonlama bilimga ega bo'lishga intilish muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu borada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fani huquqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu vazifa davlat ta'lim standartlari va meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan muvofiq tarzda amalga oshirilishi shuningdek, «Tarbiya» fanining o'quvchilarda qonuniy va huquqiy bilimlarni rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy faolligini, hududiy javobgarligini va jamiyatga bo'lgan mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan imkoniyatlari juda muhimdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari miliy bazasi. <https://lex.uz>
2. Каримова О.А. Ёшлар ҳуқуқий тарбиясининг асосий йўналишлари. –Т.: ТДПУ.1999.- 21 бет.
3. Ходжаев Б.Х., Умумий педагогика (педагогика назарияси). Т.: Sano-Standart 2017 йил 416 бет
4. Karimov S., Ortiqboyeva D. "O'quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish", Toshkent, 2022
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Tarbiya konsepsiyasi" asosida ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanma